

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

BEPUL QO'LLANMA

# INGLIZ TILINI O'RGANISH

Ushbu gayd sizga ingliz tilini  
mustaqil o'rganishingizga  
va ongingizdagi mavhumlikni  
yo'qotishga yordam beradi

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

# KIRISH

Hush kelibsiz! Avvalambor sizni ingliz tilini o'rganish qarorini qabul qilganingiz bilan tabriklaymiz.

Ushbu gaydda siz ingliz tilini mustaqil o'rganish uchun har bir bosqichda nimalar kerak ekanligi va aynan qaysi grammatik mavzularni o'rganishingiz kerakligi, qaysi kitoblardan foydalanishingiz kerakligi, qaysi so'zlarni yodlashingiz kerakligi va qaysi videolarimizni ko'rishingiz kerakligini batafsil tushuntiramiz.

Agar siz ushbu qo'llanmada aytilgan barcha ishni ketma-ketlik bilan bajara olsangiz ingliz tilini albatta o'rganasiz. Shuningdek bu qo'llanmadagi ma'lumotlar siz uchun foydali bo'lgan bo'lsa albatta uni do'stlaringizga ulashing!

Shunday qilib ingliz tilini o'rganishni boshlashdan avval uni qanday qilib o'rganishni o'rganish kerak. Bu degani siz til o'rganish usulingizni yaratib olishingiz va har kunlik bajarishingiz kerak bo'lgan vazifalarni rejalashtirib olishingiz kerak. Keyingi betda sizga buni qanday amalga oshirishni ko'rsatamiz.

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

# INGLIZ TILINI O'RGANISH UCHUN QADAMLAR

1-qadam. Ingliz tili  
darajani aniqlash

2-qadam. Adabiyot va  
resurslarni aniqlash

3-qadam.  
Rejalashtirish

4-qadam. Qobiliyatlarini  
rivojlantirish

5-qadam. Kunlik odatlarni  
to'g'ri shakllantirish

# 1-QADAM. INGLIZ TILI DARAJANI ANIQLASH

Buning uchun siz internetdagi turli xil testlardan foydalansangiz bo'ladi.

Ko'pchilik o'quvchilar ingliz tilini o'rganishdan avval faqat grammatika darajasini tekshirishadi. Lekin undan tashqari har bir o'rganuvchi o'zining tahminan qaysi darajada so'z boyligi mavjudligini bilmaydi

Agarda siz ingliz tilini umuman bilmasangiz va 0dan boshlayman desangiz bu qadamni o'tkazib yuborsangiz ham bo'ladi chunki siz boshidan boshlaysiz, lekin siz davom ettiruvchi bo'lsangiz va avval kurslarga qatnab tashlab qo'ygan bo'lsangiz unda testdan o'tish ayni muddao. <https://test-english.com/level-test/>

**Ingliz tili darajangizni aniqlash uchun quyidagi ssilka orqali test ishlaysiz**  
<https://test-english.com/level-test/>

**Agar siz ingliz tilida taxminan qancha so'z bilishingizni test qilmoqchi bo'lsangiz unda ushbu ssilka orqali bilib oling!**  
<https://www.vocabularytester.com/vocabulary-test-english>

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)



# INGLIZ TILI DARAJALARI HAQIDA MA'LUMOT

## A1 - Beginner level

- 500 ta boshlang'ich so'z
- O'zi haqida boshlang'ich gapira oladi
- Boshlang'ich fonetika va grammatika (Alifbo, to be, present, past zamonlari)
- Kundalik oddiy kichik suhbatlarni tushuna oladi

## A2 - Elementary level

- 1000 ta so'z
- Asosiy kundalik suhbatlarni amalga oshira oladi
- Asosiy grammatika
- (boshlang'ich zamonlar, modal fe'llar, ot, sifat, ravish)
- Boshlang'ich dialoglar qila oladi
- Oila, kasb, shaxsiy hayot haqida gaplasha oladi

## B1 - Pre-intermediate level

- 1500 ta va undan yuqori so'z
- Nima aytilayotgani haqida umumiy tasavvurga egasiz, lekin ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi.
- Biroq, siz shaxsiy qiziqishi haqida suhbat qurishi mumkin.
- Suhbat uchun kerakli grammatik bilimga ega

## +B1 - Intermediate level

- 3000 ta va undan yuqori so'z
- Ingliz tilidagi qobiliyatlari "o'rta" daraja
- Kundalik ishlari bilan bog'liq masalalarda ingliz tilida gaplashadi va tushuna oladi
- (Barcha zamon va modal fe'llarni biladi)
- O'zini qiziqtirgan mavzularda xatlar yoki insholar yozishi mumkin

## B2 - Upper-intermediate level

- 4000-7000 gacha so'z biladi

Ular boshqa ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan qulay muloqot qila olish uchun o'zlarini ravon ifoda etishlari mumkin. Ular ko'plab mavzular bo'yicha aniq, batafsil matn yaratishlari va turli xil mavzu bo'yicha murakkab nutq bilan tushuntirishlari mumkin. Bu darajadagilar IELTS imtihonidan 5.5-6.5 atrofida ball oladilar (universitetga kirish uchun yetarli daraja hisoblanadi)

## C1 - Advanced level


- 8000-15,000 so'z
- C1 darajasi tilni yaxshi biladigan foydalanuvchilarga, ya'ni ish va o'qish bilan bog'liq murakkab vazifalarni bajara oladiganlarga mos keladi. Ular ingliz tilida erkin, deyarli grammatik xatolarsiz muloqot qilishadi. IELTSdan 7-8 atrofi



# 2-QADAM. KERAKLI RESURSLARNI ANIQLASH

Bu qadamda siz ingliz tilini o'rganish uchun qaysi kitoblardan yoki qanday resurslardan foydalanishingizni aniqlashingiz kerak. Biz tavsiya qiladigan har bir kitob haqida batafsil ma'lumot beramiz.

## 1- kitob




Bu kitob asosan ingliz tilini barcha qobiliyatlari (reading, listening, speaking, writing, vocabulary, grammar)ni rivojlantirishga qaratilgan. Bu kitobni beginner dan advanced darajagacha bo'lgan to'plamlari bor.

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)



## 2- kitob



Keyingi kitobimiz bu Raymon Murphy. Bunda siz asosan grammatikangizni rivojlantirishingiz mumkin. Beginner va Elementary darajadagilar uchun qizil ranglisi, intermediate darajadagilar uchun ko'k ranglisi, advanced darajadagilar uchun esa yashil ranglisi to'g'ri keladi

Kitobni har bir bo'limida oz-ozdan grammatik mavzular tushuntirilgan va uni keyingi betida 5-6 tadan mavzulashtirilgan mashqlar berilgan.

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)



# 3- kitob



Keyingi kitobimiz bu 4000 essential words. Bu kitobda siz so'z boyligingizni qiziqarli hikoyalar va matnlarni o'qigan holda oshirishgiz mumkin.

Telegramda [https://t.me/essentuz\\_bot](https://t.me/essentuz_bot) nomli bot bor. Bu bot aynan shu kitobdan o'rgangan so'zlaringizni tekshirishga yordam beradi.

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)



# So'z yodlash uchun eng zo'r ilova bu Quizlet

Unda siz turli xil interaktiv usullar bilan ingliz tilida so'zlaringizni joylashtirib yodlashingiz mumkin. Bu haqida ENGLISH FOCUS YouTube kanalizda video chiqarganmiz



**BIR KUNDA**  
**50 TA SO'Z**  
**YODLASH**

Quizlet

13:39


ingliz tilida QUIZLET ilovasi orqali BIR KUNDA 50 TA...

5,4 тыс. просмотров  
• 2 месяца назад

<https://youtu.be/o7MVuo6aJ5o>

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

# Speaking uchun zo'r ilova



## Speak Pal

Ushbu ilovada siz o'zingizni darajangizga mos bo'lgan sheriklarni topsangiz bo'ladi va o'zingizni qiziqtirgan mavzularda suhbatlashsangiz bo'ladi.

Bu ilova sizga ingliz tilida suhbatlashishda qo'rquvingizni yengishga yordam beradi

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

# YANA BOSHQA KITOBLAR

Grammatikani rivojlantirish uchun kitoblar

1. Grammarway
2. Destination
3. Oxford Grammar
4. Betty Azar
5. Test master (testlar ishlash uchun)

Umumiy qobiliyatlar uchun kitoblar

1. SpeakOut
2. Navigate
3. English File
4. Upstream va hokazo

Istalgan bittasini tanlab o'rganishni boshlang! Lekin hammasini bir vaqtda o'rganish kerak ekan deb o'ylamang! Masalan men grammatika uchun raymond murphy va qobiliyatlar uchun headwayni tanlagan bo'lar edim.



## 3-QADAM. REJALASHTIRISH

Har bir jiddiy ishni boshlashdan avval albatta uni qanday bajarishni rejalashtirish kerak bo'lganidek ingliz tilini o'rganishni boshlashdan avval ham barchasini rejalashtirib olish kerak.

Bundan avvalgi 1-2 qadamlarda siz bilan ingliz tili darajangizni aniqlash va kerakli resurslarni tanlash haqida gaplashdik endi bu qadam biz siz bilan sizni vaqtingizni to'g'ri taqsimlash haqida gaplashamiz.

Hozir to'g'ri so'z bo'lingda shu savolga javob bering! Siz ingliz tilini o'rganish uchun kuniga necha soat vaqt ajrata olasiz?

Kimdur 1-2 soat, kimdur esa 5 xattoki 8 soat vaqt ajrata olaman deydi. Keling eng o'rtasini olamiz ya'ni 3-4 soatni

Haftada 7 kun bor. Shundan 6 kunini dars qilishga sarflaymiz yakshanba kuni dam olamiz.

Dush	Sesh	Chorsh	Paysh	Juma	Shanba
3 soat	3 soat	3 soat	3 soat	3 soat	3 soat

Har bir kunda aynan nimalar bilan shug'ullanishimizni 1 hafta avvaldan rejalashtiramiz va hafta oxirida Shanba kuni takrorlash qilamiz.

Masalan toq kunlarda grammatika va so'z boylini oshirish bilan shug'ullansak juft kunlarda esa inglizcha audiolar eshitish, matnlar o'qish va kichik mavzularda speaking qilsak bo'ladi

## **INTIZOM**

Til o'rganish uchun yana bir eng muhim jihat bu intizomli va sabrli bo'lish. Intizom degani bu har kuni reja bo'yicha to'xtovsiz harakat qilish demakdir. Ingliz tilini siz 1-2 xaftada yoki 1-2 oyda mustaqil o'rgana olmaysiz. Siz ingliz tilini kamda 1-1.5 yilda mustaqil o'rgana olasiz. Siz doim uzoq muddatli harakatni amalga oshirish haqida o'ylang! Shunda natija ham shunga yarasha sifatli bo'ladi.

# 4-QADAM. INGLIZ TILI QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bu qadamda siz ingliz tilini har bir qobiliyatini rivojlantirish haqida bilib olasiz. English Focus jamoasi sizga YouTube kanalimizda har bir qobiliyat uchun alohida videolar tayyorlaganmiz. Quyida sizga har bir videoni ssilkalarini taqdim etamiz. Ustiga bosing va ko'ring!



ingliz tili 0 dan LISTENINGni rivojlantirish va eshitib tushunish...

4,1 тыс. просмотров • 1 месяц назад

<https://youtu.be/Kc5dFtTetAc>



<https://youtu.be/8-vr1V5Sn3I>





## Grammatikani SPEAKINGda ishlatish eng oson usul

1,6 тыс. просмотров • 3 месяца назад

<https://youtu.be/yOwXdewicP0>



INGLIZ TILI QOBILİYATLARI

## Ingliz tilida gapirishni o'rganish - 30 kunda 5 ta usul (Endi booknomy...

293 тыс. просмотров • 1 год назад

<https://youtu.be/nqFKLt8AKC4>





**Bu videoni ko'rish sizni inglizcha talaffuzingizni oshirishga...**

4,1 тыс. просмотров • 4 месяца назад

<https://youtu.be/pI3yKTSe8RU>

Shuningdek ingliz tilini mustaqil o'rganish bo'yicha ham yana bir qator foydali videolarimizni YouTube kanalimizdan topsangiz bo'ladi



**ingliz tilini MUSTAQIL O`RGANISH uchun QO`LLANMA**

26 тыс. просмотров • 1 год назад

[https://youtu.be/3Gq6ts\\_OGAw](https://youtu.be/3Gq6ts_OGAw)

## 5-QADAM. KUNDALIK ODATLARNI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH

O'zi bu haqda 3-qadamda aytib o'tgandik lekin umuman olganda bunga 5-qadamda qo'shimcha qilmoqchimiz. Chunki odamzotni har kunlik 70% qiladigan harakati uning shakllangan odatlaridir.

Oddiy misol. Ertalab uyg'onish vaqti, siz har kuni ertalab vaqtli yoki kech bir deyarli bir xil vaqtda uyg'onasiz

Har kuni bir xil vaqtda deyarli bir xil ishlarni bajarasiz. Ingliz tilini ham kundalik hayot tarzingizni bir bo'lagiga aylantirishingiz kerak.

Vaqt o'tgan sari sizni ingliz tili darajangiz o'rta darajaga yetganda o'z ona tilingizda kitoblar va filmlar ko'rishni o'rniga shuni ingliz tilida qilishga harakat qilishingiz kerak.

Atrofingizdagi narsalarni ingliz tiliga tarjima qilib ko'ring, shunda o'zingizga eng kerakli so'zlarni olasiz. Shuningdek o'z ona tilingizda ko'proq qaysi mavzularda ko'p gapirasiz shunga ham ahamiyat bering. Vaqti kelganda oz-ozda o'sha fikrlaringizni ingliz tiliga o'girishga harakat qiling. Inglizcha o'ylashni fikrlashni boshlang!

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)

# MAVHUMLIK

Mavhumlik sizni harakatdan to'xtatishi mumkin

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki biror bir ishni oxirigacha yetkazmasdan tashlab qo'yishga asosiy sabablardan biri bu mavhumlik ekan.

Masalan siz ingliz tilida biror grammatik mavzuni o'qiyapsiz va uni tushina olmayapsiz, yoki bo'lmasam o'sha mavzuni tushungansizu lekin mashqlarda ko'p xatolar qilyapsiz. Bu esa sizni stressga soladi.

Bunday holatda nima qilish kerak? Buning uchun siz har bir qilayotgan xatolaringizni muvaffaqiyatsizlik deb emas aksincha imkoniyat sifatida ko'rishingiz kerak. Har bir til o'rganayotgan talaba o'z xatolariga darrov asabiylashmasdan aksincha nega aynan shu xatolar paydo bo'lganini tahlil qila olishni o'rganishi kerak.

Shunda sizga har bir xato oltin zarralardek ko'rinadi va sizni rivojlanishingizga haqiqiy imkoniyatni beradi. 99% talaba bu narsani aniq tushunmaydi lekin tushunayotganlar o'zini ustida ishlayapdi

[t.me/englishfocusuz](https://t.me/englishfocusuz)



# XULOSA

Ingliz tilini o'rganish 90% o'zingizga 10% o'qituvchingizga bo'g'liqdir. Agar siz o'qituvchingizni aytganini to'g'ri bajarsangiz shunda yaxshi natijaga erishishingiz mumkin. Hozirda ham ushbu berilgan qo'llanmani o'qituvchingiz sifatida ko'ring! Bu gaydni yasash uchun bizga juda ko'p vaqt kerak bo'ldi.

Agarda siz bu ma'lumotlarni foydali va kerakli deb bilsangiz albatta uni ingliz tilini o'rganayotgan yaqinlaringiz bilan bo'lishing!

Agarda siz ingliz tilini English Focus bilan birgalikda o'rganishni va o'z xatolaringiz ustida ishlashni xohlasangiz unda bizning onlayn yoki oflayn darslarimizga yoziling!

Ro'yxatdan o'tish uchun telegramdan [https://t.me/englishfocus\\_admin](https://t.me/englishfocus_admin) ga yozing!

Bizning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarimiz:



<https://t.me/englishfocusuz>



<https://instagram.com/englishfocus.uz>



<https://www.youtube.com/@englishfocusuz>